

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Aholi maskanlarini vujudga kelishida geomorfologik omillarning o'rne va ahamiyati	231
O.I.Abdug'aniyev	
Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimining representativligi va samaradorligini baholash usullari	236
T.D.Jumayev, Sh.B.Qurbonov	
O'zbekiston tog' zonasi ma'muriy-hududiy bo'linishi xususiyatlari va ularni takomillashtirish	244
P.A.Xasanov	
Landshaftlardan foydalanishda turli yondashuvlarning qo'llanilishi va tizimli yondashuv	250

QISHLOQ XO'JALIGI

N.A.Abdugalil, S.A.Bayrambay, I.N.Mamajonov	
Urug'lik paxtani yetishtirish va yuqori kondisiyalik urug'lik fondini tayyorlash	257

ILMIY AXBOROT

K.G'.Baykalanov	
O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishda jamiyat ijtimoiy-ma'naviy muhit farovonligining o'rne	263
G.M.Maxsudova	
Ekologik ta'limni modernizatsiyalashda ekosavodxonlikni shakllantirishning pedagogik va integrativ jihatlari	267
Sh.Ismatov	
Yangi O'zbekiston – yangi ma'naviy makon	272
A.A.Saodatov	
Yoshlar ekologik madaniyatida nodavlat-notijorat tashkilotlarining tutgan o'rne	276
M.X.Raxmatulloyev	
Buxoro viloyat radiosining tashkil topishi tarixi va faoliyati	280
D.I.Nuriddinova	
Ona tili ta'limi jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida shaxslararo munosabat madaniyatini shakllantirish texnologiyasi	285
D.M.Redjabova	
Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning yangi bosqichida xotin-qizlarning davlat tashkilotlaridagi faolligi	290
D.A.Abduraxmonov	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ-pedagogik yondashuv asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning metodologik jihatlari	294
K.I.Турдалиева	
Интерпретация литературы по формированию функциональной грамотности учащихся начальных классов	297
N.A.Subxonova	
Mahalliy va xorij manbalarida Amir Shohmurod shaxsi va faoliyati tavsifi	303
Sh.M.Xaydarova	
Yangi O'zbekistonda axloqiy va diniy qadriyatlar o'rtasidagi dialektik munosabatlar va ularning rivojlanishi	307
D.M.Xusanov	
Axloqiy qadriyatlar va ularning postmodern jamiyatdagi o'ziga xos jihatlari	311
R.S.Batirov	
Ijtimoiy kapital tushunchasi va uning asosiy elementlari xususida	315
A.X.Mamadalimov	
Kosmopolitizm tushunchasi va uning asosiy yo'nalishlari xususida	319
Y.Sh.Yunusova	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy modernizatsiya jarayonlarining falsafiy xususiyatlari	324
N.T.Buzrukova	
Zamonaviy jamiyatda shaxsiy xavfsizlik va daxlsizlikni ta'minlash zarurati va falsafiy asoslari	327



UO'K: 911.37

O'ZBEKISTON TOG' ZONASI MA'MURIY-HUDUDIIY BO'LINISHI XUSUSIYATLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH**ОСОБЕННОСТИ АДМИНИСТРАТИВНО-ТЕРРИТОРИАЛЬНОГО ДЕЛЕНИЯ ГОРОДСКОЙ ЗОНЫ УЗБЕКИСТАНА И ЕЁ УЛУЧШЕНИЕ****FEATURES OF THE ADMINISTRATIVE-TERRITORIAL DIVISION OF THE UZBEKISTAN MOUNTAIN ZONE AND ITS IMPROVEMENT****Jumayev Turob Djumayevich¹**¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti faxriy professori, g.f.d.**Qurbonov Shuxrat Bekmetovich²** ²Chirchiq davlat pedagogika universiteti tabiiy fanlar fakulteti geografiya kafedrasida dotsenti, g.f.f.d.**Annotatsiya**

Maqolada O'zbekiston Respublikasining tog' zonasi ma'muriy-hududiy bo'linishining tarixiy-geografik jihatlarini ochib berilgan. Tog'li hududlar ma'muriy birliklarining shakllanishi, ularning sonining o'zgarishi va bu o'zgarishlarga ta'sir ko'rsatgan omillarning xususiyatlari keltirilgan.

Аннотация

В данной статье раскрываются историко-географические аспекты административно-территориального деления горной зоны Республики Узбекистан. Рассматриваются формирование административных единиц в горных районах, изменения их численности и характеристики факторов, влияющих на эти изменения.

Abstract

This article reveals the historical and geographical aspects of the administrative-territorial division of the mountain zone of the Republic of Uzbekistan. It discusses the formation of administrative units in mountainous areas, the changes in their numbers, and the characteristics of the factors influencing these changes.

Kalit so'zlar: tog' zonasi, ma'muriy-hududiy tuzilish, qishloq ma'muriy tumani, viloyat, respublika, qishloq aholi punktlari, ma'muriy birlik, boshqaruv.

Ключевые слова: горная зона, административно-территориальная структура, сельский административный район, область, республика, сельские населённые пункты, административная единица, управление.

Key words: mountain zone, administrative-territorial structure, rural administrative district, province, republic, rural settlements, administrative unit, governance.

KIRISH

Har qanday mamlakatning ma'muriy-hududiy tuzilmasi siyosiy geografik obyekt sifatida o'ta murakkab tizim hisoblanib, uning shakllanishi tarixiy, siyosiy iqtisodiy, geografik va boshqa omillarga bog'liq. Ushbu tuzilmaning eng asosiy funksiyasi (vazifasi) turli darajadagi hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni-u davlat va ijtimoiy tashkilotlari, moliya, soliq, kabi qator tizimlar faoliyatini amalga oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarni hududlar doirasida ijobiy tarzda rivojlantirish masalalarini to'g'ri hal etishda ham katta o'rin tutadi.

Ta'kidlash joizki, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining yirik siyosiy geografiya tarmog'ida ma'muriy-hududiy tuzilishlar geografiyasi ham alohida o'rin egallagan bo'lib, u ma'muriy-hududiy birliklarning shakllanishi va rivojlanishi, son jihatidan o'zgarishi bilan bog'liq geografik jarayonlarni o'rganadi. Shuningdek, ma'muriy-hududiy tuzilishlar geografiyasining vazifalari sifatida respublikamiz iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani doirasida miqyosida quyidagilarni ajratish

GEOGRAFIYA

mumkin: O'zbekiston ma'muriy-hududiy bo'linishning kompleks hududiy va davriy tahlilini amalga oshirish; ma'muriy-hududiy bo'linish tizimlari: funksiyalari, shakllari va o'zgarish jarayonlarini o'rganish; O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy bo'linishining huquqiy asoslarini o'rganish; ma'muriy-hududiy bo'linishning yuqori bo'g'inidagi islohotlarni tadqiq etish; respublika ma'muriy-hududiy bo'linish tizimida shahar va qishloq tumanlari to'ridagi o'zgarishlarni tahlil qilish; O'zbekiston shaharlari va shaharchalari tarkibidagi ma'muriy-hududiy o'zgarishlarni tahlil qilish; respublika viloyatlari, Qoraqalpog'iston respublikasi va Toshkent shahri ma'muriy-hududiy bo'linishi tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

O'zbekistonning ma'muriy-hududiy tuzilishi mustaqillik yillarida sifat jihatidan yangi - bozor munosabatlariga muvofiq keladigan bosqichga qadam qo'ydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi "Ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi" deb nomlangan to'rtinchi bo'lim "O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi"- XVI bobi 83-moddasida O'zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasidan iboratligi ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, 84-moddasida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahrining chegaralarini o'zgartirish, viloyatlar, shaharlar, tumanlar tashkil qilish va ularni tugatish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining roziligi bilan amalga oshirilishi belgilangan [1].

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining 28.08.2020-yildagi "O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi to'g'risida" gi O'RBQ-635-sonli Qonuni qabul qilingan bo'lib, u 8 ta bob, 47 ta moddadan iborat [2]. Ushbu Qonunning maqsadi O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat ekanligi 1-moddada belgilab qo'yilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ma'muriy-hududiy tuzilishlar geografiyasining nazariy va uslubiy asoslari respublikamiz va xorijiy mamlakatlarda geograflar, tarixchilar, huquqshunoslar, siyosatshunoslar mutaxassislar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, ma'muriy-hududiy bo'linishning nazariy masalalari bilan xorijiy olimlar R.F. Turovskiy, N.S. Mironenko, L.V. Smirnyagin, V.A. Anuchin, A. Norton, X. Massama, A.A. Tranina, E.B. Alaeva, B.S. Xoreva, S.A. Tarxova, O.V. Shulgina, A.G. Manakova, I.I. Sigova, Yu.S. Nikulnikova, V.P. Mosunova, O.B. Glaser tadqiqotlar olib borishgan. Fransiyaning ma'muriy hududiy bo'linishi bo'yicha L. Miro, J. Bankal, F. Braudel, J.F. Dumont, M.V. Ozouf-Marigne, N. Verde, J.Domenak, G. Brabant, R. Gersog, E. Kerrush, A.E. Sookie, Germaniyada mazkur mavzu bo'yicha X. Vagner, V. Titze, A.B. Gunliks, X. Vollman, J. Dietlyain, I.M. Busigina, O.V. Vitkovskiy, I.V. Leksina, V.N. Streletskiy, V. Ernst, X. Lamping kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.

Mamlakatimizda mazkur mavzu bo'yicha asosan, xuquqshunoslar va tarixchilar ilmiy izlanishlar olib borishgan. Iqtisodiy va ijtimoiy geografik jihatdan aynan ma'muriy-hududiy tuzilishlar bo'yicha alohida dissertatsiya bajarilmagan. Bu borada faqat g.f.d., prof. Sh.Z. Jumaxanovning "Markaziy Osiyo anklav-eksklav hududlarini iqtisodiy geografik va siyosiy geografik tadqiq etishning metodologik asoslari" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi hamda Sh.B. Qurbonovning "O'zbekiston qishloq tumanlari rivojlanishining iqtisodiy geografik jihatlari" mavzusidagi dissertatsiyasida alohida ma'muriy-hududiy bo'linishga bag'ishlangan bob mavjud, xolos.

Shuningdek, maqolada O'zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy bo'linishga oid bo'lgan qarorlar va farmonlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanida yaratilgan nazariy bilimlar, mazkur mavzu doirasida tadqiqot olib borgan olimlarning ilmiy ishlanmalaridan foydalanilgan. Maqolaning uslubiy asosini tarixiy, geografik yondoshuv tashkil etadi. Shuningdek, tizim-tarkib, statistik, matematik, hududiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishi ham zamon va makon nuqtai nazaridan o'zgarib borgan va o'sha davrning siyosiy - ijtimoiy tuzimi, qo'yilgan vazifalar, ishlab chiqarishni hududiy tashkil etilishi, boshqaruv tizimini takomillashtirish kabi omillar bilan bog'liq bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, mamlakat hududiy va ma'muriy tuzilishini to'g'ri yo'lga qo'yish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etdi. Ma'muriy-hududiy bo'linish O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga,

siyosiy barqarorligiga ta'sir ko'rsatadigan muhim omildir. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy bo'linishining huquqiy asoslari, mavjud tuzilmalari va ular qanday rivojlanayotganligi haqida batafsil ma'lumot beriladi. Ma'muriy-hududiy bo'linish davlatning hududiy jihatdan boshqarish tizimini tashkil etuvchi asosiy elementlardan biridir. O'zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy bo'linish mamlakatni ma'lum bir hududlarga ajratish va ushbu hududlarda davlat boshqaruv organlarining faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Bunda ma'lum hududiy birliklar - viloyatlar, tumanlar va shaharlar shakllantiriladi.

Tog' hududlarini barqaror rivojlantirish va muhofaza qilishning tuzilmaviy ko'p xilligi asosan uning birlamchi asosi – tog' tabiatining murakkabligi bilan bog'liq. Tog' muhiti va makonining yaxlitligi va birligi, xilma-xilligi, tog'-tabiatining uch o'lchamliligi (eni, uzunligi, balandligi) sababli paydo bo'lgan. Mazkur uch o'lchamlilik tog' hududlarini bitta katta va yagona tabiiy – ekologik, landshaft, ijtimoiy-iqtisodiy balandlik zonal makoniy tizimga – yagona tog' makoniga birlashtiradi, tog' tabiati va uning komponentlari, aholisi va uning yashash manzillari, xo'jaligi, nisbatan marginalligi (rivojlanishda orqada qolishi) va borish-kelish qiyinligi kabi katta xilma-xillik mavjudligini belgilab beradi. Mazkur tizim aniq tog' tabiati va ijtimoiy-iqtisodiy makonida va aniq tarixiy o'lchamda rivojlanadi. Tog' hududlarining ma'muriy-hududiy tuzilishi ham mazkur shart-sharoitlarga mos bo'lishi talab qilinadi.

Davlatning ilmiy asoslangan ma'muriy-hududiy bo'linishining barqarorligi uning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorligining dalil va isbotlaridan biri hisoblanadi. Tarixiy vaziyat taqozosi bilan O'zbekiston 126-yil davomida sobiq Ittifoqning mustamlakasi maqomida bo'lganligi sababli uning ma'muriy-hududiy bo'linishi ham "bo'lib tashla va hukmron bo'l" prinsipini amalga oshirishga xizmat qilgan, milliy ozodlik harakatlariga qarshi vazifani bajargan. Bunda ma'muriy-hududiy to'r tizimida hududiy mehnat taqsimoti jarayonlari, tarixiy va tabiiy sharoitlar, milliy-etnik xususiyatlar deyarli hisobga olinmagan.

1917-yildagi Oktabr to'ntarishidan keyin mamlakatning ma'muriy-hududiy bo'linishi tubdan qayta qurildi. Bu o'zgarishlarga asos sifatida iqtisodiy rayonlashtirish, milliy tarkib va ma'muriy-hududiy bo'linishning birligi prinsipi ilgari surildi. Lekin ma'muriy-hududiy qayta o'zgartirishlarning mantiqsizligi, asoslanmaganligi, bir tomondan boshqa tomonga o'zgarib turishi (masalan ko'p marta viloyatlar, tumanlarning birlashishi va ajratilishi) mazkur sohada aniq siyosatning yo'qligidan dalolat beradi (1-jadval).

1-jadval

O'zbekistonning tog' zonasi ma'muriy tumanlarining shakllanishi davri bo'yicha guruhlanishi

Yillar	Tumanlar turi	Tumanlar nomi	Tumanlar soni	%
1926	tog'	Parkent, G'allaorol, Zomin, Nurota, Bulung'ur, Dehqonobod, Urgut, Boysun	8	11,1
	tekislik-tog'	Yuqorichirchiq, Pskent, Andijon, Jalaquduq, Marhamat, Paxtaobod, Qo'rg'ontepa, Xo'jaobod, Kosonsoy, Chust, Yangiqo'rg'on, Pop, Oltiariq, Rishton, Quva, Beshariq, Farg'ona, O'zbekiston, Xovos, Sharof Rashidov, Xatirchi, Konimex, Ishtixon, Pastdarg'om, Samarqand, Kattaqo'rg'on, Payariq, G'uzor, Chiroqchi, Kitob, Yakkabog', Shahrisabz, Termiz, Sho'rchi, Denov, Jarqo'rg'on, Sherobod, Sariosiyo	38	52,7
1927-1939	Tog'	Forish	1	1,4
	tekislik -tog'	Qibray, To'raqo'rg'on, Uchqo'rg'on, Tomdi, Jomboy, Paxtachi, Qamashi	7	9,7
1940-1959	tog'	Ohangaron, Bo'stonliq, So'x, Baxmal	4	5,6
	tekislik -tog'	Chortoq, Uzun, Angor, Quvasoy sh.	4	5,6
1960-	tog'	Nurobod, Qo'shrabot	2	2,8

GEOGRAFIYA

1990				
	tekislik -tog'	Uchquduq, Navbahor, Nishon, Qiziriq, Oltinsoy, Qumqo'rg'on	6	8,3
1991-yildan keyin xozirgacha	tog'	Yangiobod	1	1,4
	tekislik -tog'	Buloqboshi	1	1,4
Jami			72	00
Shu jumladan :	tog'		16	2,2
	tekislik -tog'		56	7,8

Jadval O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi to'g'risida"gi ma'lumotlar asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.

Mustabit sovet hokimiyati yillarida mamlakat ichkarisida milliy hududiy tuzilmalar chegaralarining aqlga sig'adigan va aqlga to'g'ri kelmaydigan turlari amalga oshirildi. Chegaralarni belgilash va o'zgartirishda barcha masalalarni hukmron doiralarning o'zboshimchaligi hal etgan. Ichki chegaralar hamma uchun quruq rasmiyatchilik va ikkinchi darajali ish bo'lgan (xohladi-o'zgartirildi).

Ma'lumki, har qanday davlatning ma'muriy-hududiy bo'linishini (MHB) quyidagi ikki yo'nalishda ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. 1) MHB – jamiyat obyektiv rivojlanishining tabaqalashgan va nisbatan muxtor (avtonom) qismini ichki tartibga solishga zarurat va ehtiyoj mavjudligining bir tomoni ekanligi; 2) bu davlat hududini uning tabiati, vazifasi va funksiyalariga, shuningdek, shunday bo'linishga adekvat mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqarish tizimini tashkil etishga mos keladigan qismlarga bo'lishni bildiradi.

Mamlakatimizning, shu jumladan tog' zonasining ma'muriy-hududiy bo'linishi dastlab 1926 yilda amalga oshirilgan bo'lib, unda hozirgi vaqtda mavjud bo'lgan 72 tumandan 46 tasi (63,8%), shundan 16 ta tog' tumanlarining 8 tasi (50%), 56 ta tekislik – tog' tumanlarining 38 tasi (67,9%) tashkil etilgan. Hozirgi vaqtda tekislik – tog' tumanlarining tog' hududi maydoni bo'yicha eng kattasi hisoblangan Sariosiyo, Sherobod, Pop tumanlari ham aynan shu tashkil topgan. Bundan keyingi davrlarda 1960-1990-yillar alohida ajralib turadi: ikkita tog' tumani (2,8%) va 6 ta tekislik tog' tumani (8,3%) tuzilgan. Mustaqillik yillarida faqat 1 ta kichik tog' tumani (Yangiobod) va kichik Buloqboshi tumani tashkil etilgan. Shunday qilib mustaqillik yillarida ilgari shakllangan tumanlar tizimi amalda deyarli o'zgarishlarga uchramadi [3;4;5].

2-jadval

O'zbekistonning tekislik – tog' viloyatlari chegaralarining turli yillarda o'zgartirilishi: birlashtirilishi va qayta tuzilishi

№	Viloyatlar	Viloyatlarning birlashtirilishi, qayta tuzilish yillari
1.	Namangan	1941-yil 11-martda tashkil etilgan. 1960-yil 25-yanvarda Andijon va Farg'ona viloyatlari tarkibiga qo'shib yuborilgan. 1967- yil 18-dekabrda qayta tashkil etilgan.
2.	Navoiy	1982-yil 20-aprelda Buxoro va qisman Samarqand viloyatlari hududlaridan tashkil etilgan. 1988-yil ma'muriy birlik sifatida tugatilib, 1992- yil boshida qayta tiklandi.
3.	Qashqadaryo	1943-yil 20-yanvarda tashkil etilgan. 1960-yil 20-yanvarda Surxondaryo viloyatiga qo'shildi. 1964-yil 7-fevralda yangidan tashkil etilgan.
4.	Surxondaryo	1941-yil 6-martda tashkil etilgan. 1925-yil 29-iyunda Surxondaryo okrugi bo'lgan. 1960 yil 25-iyunda Qashqadaryo viloyati bilan qo'shilgan. 1964-yil fevralda qayta tashkil qilingan.

Jadval O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi to'g'risida"gi ma'lumotlar asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.

O'zbekistonning 10 ta tekislik-tog' viloyatlarining 4 tasida (40 %) ularni tashkil etish, birlashtirish qayta tashkil etish tadbirlari amalga oshirilgan. Ularning 2 tasi Surxondaryo (06.03.1941 y.) va Namangan (11.03.1941 y.) ikkinchi jahon urushi boshlanishi arafasi, Qashqadaryo viloyati urush yillarida (20.01.1943 y.), Navoiy viloyati esa 20.04.1982- yilda tashkil etilgan.

Namangan viloyati 1960-yilda Andijon va Farg'ona viloyatlariga qo'shib yuborilgan, 7 yildan keyin 1967-yilda qayta tashkil etilgan bo'lsa, Buxoro va qisman Samarqand viloyatlari hududlaridan tashkil etilgan Navoiy viloyati 6 yildan keyin 1988 yilda ma'muriy birlik sifatida tugatilib, mustaqillik yillarida 1992-yil boshida qayta tiklandi. Katta salohiyatga ega Qashqadaryo viloyati tashkil etilganidan 17 yil o'tib 1960-yilda Surxondaryo viloyatiga qo'shib yuborildi va 4 yildan keyin 1964-yilda qayta tashkil etildi [6].

O'zbekiston tog'larining 15 %ni egallaydigan Surxondaryo viloyati tarkibiga mamlakatimiz tog'larining 15 %ga yaqin ulushi to'g'ri keladigan Qashqadaryo viloyati 1960-yilda qo'shilgan. Yana bir qiziq ma'lumot: ayni shu davrda 1962-yilda Qashqadaryo va Surxondaryo viloyati tarkibida yagona bo'lgan bittadan qishloq ma'muriy tumani – Dehqonobod Gu'zor tumani bilan, Boysun tumani esa Sherobod tumani bilan birlashtirilib, tog' ma'muriy tumanlari mavjudligiga to'la barham berildi. Boshqacha aytganda, tog' ma'muriy tumanlarini tugatish siyosati o'tkazildi. 1964-yilda Qashqadaryo viloyati yangidan va Surxondaryo viloyati esa qayta tashkil etildi. 3 yildan keyin 1965-yilda Boysun tumani, 9 yildan keyin esa Dehqonobod tumani qayta tuzildi.

Tog'larga qarshi bunday salbiy o'zgarishlar ko'plab tog' va tekislik tog' tumanlariga ham xos bo'lib, ular O'zbekistonni Ittifoqning asosiy paxta bazasiga aylantirish siyosati bilan uzviy bog'liqdir. Ma'lumki, paxta yetishtirish va hosilini yig'ib olish juda ko'p qo'l mehnatini talab qiladi. Shu munosabat bilan tog' hududlari qo'riq yerlarni o'zlashtirish (Mirzacho'l, Qarshi cho'llari, Surxon-Sherobod, Markaziy Farg'ona va boshqalar) uchun ishchi kuchi yetkazib beradigan asosiy bazalardan biriga aylantirildi. 1950-yillarning oxiridan 60-80-yillargacha tog' aholisini tekisliklarga ommaviy ko'chirish siyosati amalga oshirildi. Bu jarayon, bir tomondan, tog' landshaftlarining yemirilishi, tog' aholisining an'anaviy xo'jalik madaniyatining yo'qotilishiga, eroziya jarayonlarining kuchayishiga olib kelgan bo'lsa, boshqa tomondan tog'liklarning tekislikda yashashga moslashishi va xo'jalik yuritishining qiyin kechishiga sabab bo'ldi.

Sovet hokimiyati yillarida 9 ta (56,2 %) tog' tumanlari (1-jadval) va 19 ta (33,9 %) tekislik – tog' tumanlari chegaralarida o'zgarishlar amalga oshirildi. Toshkent viloyatida faqat Parkent tumani chegaralari o'zgartirilmagan, lekin Ohangaron tumani 1957-yilda O'rta Chirchiq va Toshkent tumanlariga qo'shilgan, 14 yildan keyin 1971-yilda qayta tashkil etilgan, Bo'stonliq tumani esa 1962-yilda Yuqori Chirchiq tumaniga qo'shib yuborilgan va 6 yildan keyin 1968-yilda qayta tashkil etilgan. Farg'ona viloyatida 1942-yilda tashkil etilgan So'x (anklav) qishloq ma'muriy tumani 1959 yilda Rishton tumaniga qo'shib yuborilgan va oradan 31 yil o'tgach 1990-yilda qayta tuzilgan.

Jizzax viloyatida faqat G'allaorol tumanida chegaralar o'zgartirilmagan, lekin Zomin tumani 1962-yilda Jizzax tumani bilan birlashtirilgan, 2 yildan keyin 1964-yilda qayta tiklangan, Forish tumani 1962-yilda Nurota va Jizzax tumanlari tarkibiga qo'shib yuborilgan, 2 yildan keyin 1964-yilda qayta tashkil etilgan, Baxmal tumani 1957-yilda G'allaorol tumani bilan birlashtirilgan, 14 yildan keyin 1971-yilda qayta tuzilgan.

Navoiy viloyatida Nurota tumani dastlab Samarqand viloyati, 1982-yildan Navoiy viloyati, 6 yil o'tgach 1988 yilda Samarqand viloyati, 4 yildan keyin 1992-yildan yana Navoiy viloyati tarkibida bo'lgan.

Samarqand viloyati tog' tumanlari tarkibida chegara o'zgarishlari amalga oshirilmagan; buning sababi sub'ektiv omillarga (masalan oliy rahbariyatda samarqandliklar bo'lishi va ularning ta'siri) bog'liqligini taxmin qilish mumkin.

Qashqadaryo viloyatida Dehqonobod, Surxondaryo viloyatidagi Boysun ma'muriy tumanlarida sodir bo'lgan o'zgarishlar yuqorida bayon qilindi.

Mamlakatimizning tekislik–tog' qishloq ma'muriy tumanlarida ko'plab asossiz chegara o'zgarishlari amalga oshirilib, ular yana qayta tiklanganligi 1-jadvalda aniq ko'rsatilgan. Biz tumanlardagi chegara o'zgarishlari va ularni qayta tashkil etish o'rtasidagi davomiylikni hisobga olib, ularni quyidagi 3 ta guruhga ajratdik: 1) qisqa muddatli – 1-3 yil: Qibray, Pop, O'zbekiston, Farg'ona, Chiroqchi, Qamashi, Jarqo'rg'on (jami 7 ta yoki 36,8 %); 2) o'rta muddatli – 4-10 yil:

GEOGRAFIYA

Yuqorichirchiq, Marhamat, Paxtaobod, To'raqo'rg'on, Navbahor, Kitob (jami 6 ta yoki 31,6 %); 3) uzoq muddatli – 10 yildan ortiq: Jalaquduq, Xo'jaobod, Xatirchi, Kosonsoy, Sariosiyo, Uzun (jami 6 ta yoki 31,6 %).

Samarqand viloyatida tekislik – tog' ma'muriy tumanlari chegaralari o'zgartirilmagan. Qisqa, o'rta, uzoq muddatli davrlarda tekislik – tog' ma'muriy tumanlari chegaralarini o'zgartirish va ularni qayta tiklash nisbatlari tegishli: 36,8: 31,6: 31,6 % bo'lganligi, ya'ni deyarli nisbatlar bir xilligini, shuningdek bunday o'zgarishlar Samarqand viloyatining 4 ta tog' tumani va 6 ta tekislik – tog' tumanlariga qo'llanilmaganligini mantiqan izohlab bo'lmaydi, uni faqat volyutarizm (o'zboshimchalik bilan ish ko'rish) siyosati oqibati deb baholash mumkin.

Masalan, uchinchi guruhga kiradigan (10 yildan ortiq muddatga qayta tashkil etilgan) tekislik – tog' tumanlari bunga yaqqol misol bo'ladi: Jalaquduq tumani 1926-yilda tashkil etilgan, 36 yildan keyin 1962-yilda Xo'jaobod tumani bilan birlashtirilgan, yana 11 yildan keyin qayta tashkil qilingan. Kosonsoy tumani 1926-yilda tashkil etilgan, yana 36 yildan keyin 1962-yilda Chust tumani bilan birlashtirilgan, 11 yildan keyin 1973-yilda qayta tashkil qilingan. Sariosiyo tumani 1926-yilda tashkil etilgan, 33 yildan keyin Denov tumaniga, yana 3 yildan keyin Uzun tumaniga birlashtirilgan, yana 2 yildan keyin Sariosiyo nomi bilan qaytadan tuzilgan. Hozir mazkur tuman O'zbekistonda tekislik – tog' tumanlarining maydoni kattaligi bo'yicha birinchi o'rinda turadi. Uzun tumani 1942-yilda tashkil etilgan bo'lib, 17 yildan keyin 1959-yilda Sariosiyo tumaniga qo'shib yuborilgan, 32 yildan keyin 1991-yilda qayta tuzilgan [8]. Hech kim hozirga qadar Surxondaryo viloyatining shimolida joylashgan mazkur tumanlardan birini tog' ma'muriy tumaniga aylantirishni hatto xayoliga ham keltirmagan.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasining hozirgi kundagi zamonaviy ma'muriy-hududiy tuzilmalarida bir qancha kamchiliklar mavjud, chunki ularning aksariyati bundan qariyb 100 yil, 75–80-yil davomida o'zgarmagan, mazkur davrda esa mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va ularning darajasida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi, milliy iqtisodiyotni boshqarish tubdan o'zgardi.

Ta'kidlash lozimki, iqtisodiy va ijtimoiy (siyosiy) geografiya fani nuqtai nazaridan ham ushbu ma'muriy bo'linishlar muhim mazmun kasb etadi. Chunki, ular doirasida statistik ma'lumotlar to'plash, boshqaruv tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish hamda mamlakatning mintaqaviy siyosatini belgilash imkoniyatlari mavjud. Shu jihatdan olganda, ma'muriy-hududiy birliklar ma'lum darajada, mumkin qadar barqaror, optimal bo'lgani maqsadga muvofiq. Binobarin, ma'muriy birliklarni har tomonlama, "ichkaridan" o'rganish iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanida muhim ahamiyat kasb etadi. Sababi, har qanday mamlakatning umumiy iqtisodiy, siyosiy, geografik xususiyatlari aynan yirik masshtabli tadqiqotlar asosida aniqlanadi [7].

Odatda, ma'muriy-hududiy birliklar qanchalik yiriklashtirilsa, boshqaruv tizimining markazlashuviga olib keladi. Biroq, bu borada muayyan optimallik talab etiladi, chunki ularning haddan tashqari kattalashishi ham, kichraytirilishi ham maqbul emas. Fan nuqtai nazaridan yondashganda, ma'muriy hudud kichraygan sari ularning ijtimoiy (sotsial) funksiyasi oshib boradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son).
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 28-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi to'g'risida"gi O'RQ-635-sonli Qonuni (Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda tasdiqlangan).
3. Abdurazakov S.K. Administrativno-territorialnoe ustroystvo Uzbekistana. – T.: Uzbekistan, 1987. – 102 s.
4. Murtazayeva R.H. O'zbekiston tarixi. – T., 2003.
5. O'zbekiston SSR ma'muriy – territorial bo'linishi. – Toshkent, 1981. – 335 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish – T.; 2001, b. 263).
7. Qubonov Sh.B. Kichik hududlar ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi. – T.: Mumtoz so'z, 2013, - 162 b.
8. Eshov B. O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi. – T. 2012.